

AXSIKENT – AFSONAVIY TEPALIKDAN OCHIQ OSMON OSTIDAGI MUZEYGACHA

Mamaziyoyeva Sevinchxon

Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix
yo‘nalishi 1-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22720848>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadqiqot mavzusining dolzarbligi, asosiy maqsadi, qo'llanilgan metodologiyasi hamda erishilgan ilmiy-amaliy natijalar yoritilgan. Tadqiqot jarayonida ko'rib chiqilgan masalalarning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinib, mavzu doirasidagi asosiy xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy maqola, tadqiqot, metodologiya, natijalar, tahlil, ilmiy yangilik, xulosalar

Аннотация: В данной статье освещаются актуальность темы исследования, основные цели, примененная методология, а также достигнутые научно-практические результаты. Анализируется теоретическая и практическая значимость рассмотренных вопросов, и излагаются ключевые выводы в рамках исследуемой темы.

Ключевые слова: научная статья, исследование, методология, результаты, анализ, научная новизна, выводы

Abstract: This article highlights the relevance of the research topic, the primary objectives, the applied methodology, and the achieved scientific and practical results. It analyzes the theoretical and practical significance of the issues addressed and presents the main conclusions within the scope of the study.

Keywords: scientific article, research, methodology, results, analysis, scientific novelty, conclusions

KIRISH

Axsikent – O‘zbekistonning shimoli-sharqida, Farg‘ona vodiysining markaziy qismida, bugungi Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida joylashgan qadimiy shahar xarobasidir. Bu hudud oddiy arxeologik yodgorlik bo‘libgina qolmay, butun Markaziy Osiyoning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutgan qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biridir. Yodgorlikning ilk shahar sifatida paydo bo‘lishi miloddan avvalgi III–II asrlarga borib taqaladi.

O‘rta asrlarda ushbu hududda buyuk Temuriylar sulolasi vakillari ham hukmronlik qilgan. Xususan, Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh Mirzoning nabirasi Umarshayx Mirzo hamda uning o‘g‘li – buyuk sarkarda, shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning faoliyati bevosita Axsikent bilan bog‘liq. Umarshayx Mirzo dastlab Kobul, so‘ngra Farg‘ona viloyati hokimi etib tayinlanadi. Keyinchalik yuz bergan o‘zaro ichki ziddiyatlar natijasida uning tasarrufida Farg‘ona, Xo‘jand va O‘ratepa hududlari qoladi. 1494-yilda u Axsikent qal‘asida baxtsiz hodisa tufayli fojiali tarzda vafot etadi. Shundan so‘ng 12 yoshli Z. M. Bobur taxt vorisi sifatida hokimiyat tepasiga keladi. Boburning yoshlik va ilk siyosiy faoliyat yillari asosan Axsi hamda Andijonda o‘tgan.

Tarixiy manbalarda Axsikent nomi "Axsi" yoki "Axsikat" shakllarida ham uchraydi. Shahar Buyuk ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘ida joylashgan strategik muhim nuqtalardan biri sanalgan. Tarixiy manbalarda, xususan, "Boburnoma"da ushbu shaharning mudofaa salohiyati va tabiati haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Qadimdan bu yerda murakkab yerosti suv inshootlari va zovurlar mavjud bo‘lgani bois, u harbiy-mudofaa jihatdan juda qulay hisoblangan. Shahar arxitekturaviy tuzilishiga ko‘ra ark, shahriston (ichki shahar) va raboddan (tashqi shahar) iborat bo‘lgan. Axsikentda o‘z davrida metallurgiya, qurolsozlik (damashq po‘lati ishlab chiqarish), shishasozlik, kulolchilik va temirchilik yuksak darajada rivojlangan.

1620-yillarda sodir bo‘lgan kuchli zilzila oqibatida ulkan shahar jiddiy talafot ko‘rib, vayronaga aylangan va aholi keyinchalik hozirgi Namangan shahriga ko‘chib o‘tgan. Bugungi kunda yodgorlik xarobalarining 60 gektarga yaqini saqlanib qolgan bo‘lib, u Farg‘ona vodiysidagi eng yirik arxeologik yodgorlik hisoblanadi.

Ma’rifatparvar alloma Is’hoqxon Ibrat 1913-yilda “Turkiston viloyatining gazetisi” sahifalarida e’lon qilingan tadqiqotlarida shaharning geografik o‘rni va tuzilishini quyidagicha ta’riflaydi:

“Axsikat Movarounnahrda, Farg‘ona viloyatida bir shaharning nomidir. Shosh (Sirdaryo) daryosining labida tekis yerda va daryoning shimol tarafida bo‘lib, shahar ila tog‘ning miyonasi bir toshlik yo‘ldir. Ichkari qo‘rg‘onda 4 ta darvozasi bor bo‘lgan. Shahar 50 metr balandlikda joylashgan va umumiy hududi 300 gektarni tashkil etgan.”

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi Ipak yo‘li arxeologiyasi bo‘limi boshlig‘i, tarix fanlari doktori, professor Abdulhamid Anarbayev rahbarligidagi ilmiy ekspeditsiya Axsikent yodgorligini tadqiq etish, konservatsiya qilish hamda uni muzeylashtirish borasida uzoq yillardan buyon tizimli izlanishlar olib bormoqda.

Ta’kidlash joizki, qadimgi Farg‘ona poytaxti bo‘lgan Axsikent bugungi kunda mahalliy va xorijiy sayyohlarning sevimli manziliga aylanib ulgurdi. 2019-yildan boshlab Axsikent yodgorligida Italiya va boshqa xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi asosida mintaqadagi ilk "Arxeologiya parki" tashkil etildi. Yodgorlik hududida o‘rganilgan qadimiy inshootlardan 10 ta eng muhim obyekt tanlab olinib, maxsus gumbazlar ostida "Ochiq osmon ostidagi muzey" sifatida konservatsiya qilindi. Ushbu obyektlarda Axsikent shahrining 1,5 ming yillik uzluksiz tarixi, mahobatli saroy qoldiqlari, o‘z zamonasining yetuk muhandislari tomonidan bunyod etilgan mudofaa devorlari, temirchilik ustaxonalari hamda murakkab yerosti kommunikatsiya tarmoqlari asliga mos tarzda namoyish etilmoqda.

XULOSA

Axsikent – qadimiy o‘tmish bilan bugungi zamon o‘rtasidagi tirik ko‘prikdir. U nafaqat moddiy tarix, balki ajdodlarimiz aql-zakovati, yuksak shaharsozlik madaniyati va milliy o‘zligimiz timsolidir. Ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan ushbu ko‘hna shahar xarobalari xalqimizning davlatchilik an‘analarini o‘rganishda beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda Axsikent yodgorligini asrab-avaylash, muzeylashtirish va uni xalqaro turizm markaziga aylantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yosh avlodni vatanparvarlik va boy tariximizga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov Y. Qadimgi Farg‘ona sirlari. – Namangan, 1992.
2. Ahmadjonov Y. Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda. – Toshkent, 2003.
3. Qozoqov T. Axsi – Farg‘ona shaharlar onasi. – Toshkent: Navro‘z, 2003.
4. Qozoqov T. Axsikentning muxtasar tarixi. – Toshkent: Fan ziyosi, 2024.
5. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.